

SHARQ XALQLARIDA KAMONLI CHOLG'ULARNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI



Vosidjon Maxmudov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası o'qituvchisi, mustaqil
izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq xalqlarida kamonli cholg'ularning (kamon bilan ijro qilinadigan torli cholg'ular) ilk paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixiy manbalar, arxeologiya, ikonografiya va musiqashunoslik nazariyalari yordamida tahlil qilinadi. Xususan, Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Xitoy, Hindiston va O'zbekiston hududlarida kamonli cholg'ular (masalan, kamancha, g'ijjak, kobyz va boshqalar) qanday rivojlanganligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning bugungi holati, transformatsiyasi va zamonaviy ijro uslublari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kamonli cholg'ular, g'ijjak, kemancha, musiqa, qobuz, erhu, torli sozlar, tovush, ohang.

Аннотация: В этой статье рассматривается историческое развитие смычковых струнных инструментов у народов Востока: от их появления до современного состояния. На основе исторических источников, археологических данных и музыкологического анализа исследуется распространение и эволюция таких инструментов в Средней Азии, Иране, Турции, Китае и Узбекистане. Особое внимание уделяется инструментам как каманча, джиджак, кобыз и др., а также их современному состоянию и трансформациям.

Ключевые слова: Смычковые инструменты, гиджак, кеманча, музыка, кобыз, erhu, струнные инструменты, звук, мелодия

Annotation: This article analyzes the origin, formation, and development of bowed string instruments among Eastern peoples, based on historical sources, archaeological data, and musicological theory. It explores how bowed instruments such as kamancheh, gijjak, kobyz and others evolved across Central Asia, Iran, Turkey, China and Uzbekistan. The current state, transformations, and contemporary performance practices are also discussed.

Keywords: Bowed instruments, ghijak, kamancheh, music, qobyz, erhu, string instruments, sound, melody

Musiqa san'ati insoniyat tarixi bilan birga rivojlangandir. Sharq xalqlari san'ati va musiqiy madaniyati haqida so'z ketganda, torli cholg'ular va ayniqsa kamonli cholg'ularning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Kamonli cholg'ular musiqada uzluksiz tovush hosil qilish imkonini beruvchi vosita bo'lib, ular yakka ijroda hamda ansambl musiqasi ijrochiligida keng qo'llanilgan. Ammo Sharq xalqlarida kamonli cholg'ular qachon paydo bo'lgan, qanday shakllangan, va ularning rivojlanishi qaysi bosqichlardan o'tgan, bular zamonaviy musiqashunoslik tadqiqotlarida hali ham izlanilayotgan masalalardir. Ushbu maqolada biz quyidagi maqsadlarni nazarda tutamiz:

Kamonli cholg'ularning ilk paydo bo'lish nazariyalari va ularning kelib chiqishi. Sharq xalqlarida (Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Xitoy, Hindiston) kamonli cholg'ularning shakllanishi va rivojlanishi.

O'zbek musiqasida kamonli cholg'ular — g'ijjak va boshqa cholg'u sozlarining tarixi va hozirgi holati.

Sharq xalqlarida kamonli cholg'ularning transformatsiyasi va zamonaviy yo'nalishlari.

Ba'zi musiqashunos tadqiqotchilar hisoblashicha, kamonli torli cholg'ular markaziy va janubi-g'arbiy Osiyoda yoki Fors–Arab uyg'unligidan (Islom madaniyati hududlari) paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. XX-asrga oid arxeologik freskalarda, xususan Xuttal (hozirgi Tojikiston hududi)dagi saroy devor rasmlarida torli cholg'uga yaqin shakldagi musiqiy qoliplarga o'xshash asboblarni tasvirlangan. Ibn Sino, al-Farobi kabi musiqashunoslar asarlarida torli va kamonli cholg'ularga oid ba'zi havolalar mavjud bo'lsa-da, ular ko'proq nazariy masalalarga to'xtalgan.

VIII-X asrlarda arab hududlarida rabāb / rebab kabi kamonli cholg'ular shakllari tasvirlanadi, ular keyinchalik Turkiya va Fors hududlariga tarqalgan. Hozirgi holatdagi tadqiqotlar kamonli cholg'ular ("bowed strings") g'oyasi Markaziy Osiyo va O'rta Sharq hududlaridan tarqalgan degan nazariyaga urg'u beradi.

Qobiz (qobuz) — turkiy xalqlarda keng tarqalgan kamonli cholg'u bo'lib uning kelib chiqishi juda qadimiy bo'lib, manbalarda miloddan avvalgi davrlarga borib taqalishi aytiladi. Qobuzni dastlab qadimgi baxshilar ruhlar bilan muloqot qilish marosimlarida ishlatgan. Qozog'istonda **kobyz** nomi bilan ataladi. Qozog'istonda "Ko'rkit ato" nomi bilan bog'langan rivoyatlar mashhur, u kobyzni takomillashtirgan shaxs sifatida esga olinadi. Qirg'izistonda **kyl-kyak** (qil qiyog). Qoraqalpqlarda **qo'biz** kabi o'xshash nomlar bilan tanilgan. Xozirda bu o'xshash cholg'ular folklor musiqiy asarlar ijrochiligida qo'llaniladi.

G'ijjak — O'zbek musiqa san'atida eng mashhur kamonli cholg'ulardan biri hisoblanadi. G'ijjakning paydo bo'lish davri turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan bo'lib o'rta asrlarda yani IX-XII asrlarda shakllangan. O'zbekistonda xalq ijrochiligi va maqom an'anaviy ijrochiligida muhim o'rin egallaydi. Yakka ijro hamda ansambl ijrochiligida qo'llaniladi.

Eron-Fors musiqiy madaniyatida **kamancheh** (kamancha / kamāncheh) eng mashhur kamonli torli cholg'ulardan biridir. "kaman" — yoy, "—cheh" — kichik qo'shimcha (ya'ni "kichik kamon"). Paydo bo'lish tarixi O'rta asrlar IX-XII asrlarni o'z ichiga oladi. Qadimda 3 ta torli bo'lgan, keyinchalik metall simlarga o'tgan. Eron saroy musiqa maktabi va mug'om-dastgoh tizimida asosiy cholg'ulardan bo'lgan. Xozirda professional sahnalarda, orkestrlarda, va xalqaro konsertlarda qo'llaniladi.

Turkiyada "**kemençe / kemane / kabak kemane**" shakllari paydo bo'lgan. Turkiyada xalq musiqasida "kebab kemane" va boshqa turdagi kamonli torli cholg'ular keng tarqalgan. Paydo bo'lish davri Eron kamanchehi bilan bog'liq. Shuningdek, Turkiyada Qora dengiz mintaqasida "**Qora dengiz kemañçasi**" kabi variantlar mavjud bo'lib ba'zida uni "Laz kemencesi" deb ham atashadi, Xozir turk milliy musiqa ijrochiligida keng qo'llaniladi.

Xitoyda kamonli torli cholg'ular "**huqin**" oilasiga kiradi (masalan, **erhu**, **sihu**, **gehu** va boshqalar). **Erhu** — ikki torli huqin turidir, torlari avvallari ipakdan bo'lgan xozirda metal yoki sintetik tolali iplardan qilinadi. Xitoyda kamonli cholg'ular avvaliga Xan sulolasi davrida ko'chmanchi xalqlar cholg'ularidan kelib chiqqan so'ngra XI asrda Song sulolasi davrida shakllangan.

Hindistonning eng mashhur kamonli cholg'usi bu **sarangi** hisoblanib, shimoliy xindistonning mumtoz musiqa tizimi **Raga** ijrochiligida asosiy sozlardan biridir. Odatda 3ta asosiy torlari va 15tadan 40tagacha rezonans torlari bo'ladi. Sarangi tarixi ancha murakkab, ammo tadqiqotchilar

uni Markaziy osiyo va Sharqdan kelgan kamonli cholg'ular asosida XV-XVII asrlarda Hindistonda shakllangan deb hisoblashadi

Xulosa qilib aytganda Sharqdagi torli kamonli cholg'ularning eng qadimiy ildizlari Markaziy Osiyo ko'chmanchi madaniyatiga borib taqaladi. Keyinchalik ular yaqin sharq, Xitoy, Hindiston, va O'rta yer dengizi mintaqasiga tarqalgan.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Википедия Wikipedia: Kobyz.
2. Tursunova, R. Jahon musiqasi tarixi.
3. ziyouz.com "Sharq xalqlari san'ati tarix, musiqa merosi va maqom ijrochiligi haqida."
4. "The Medieval Bow, circulation from Central Asia to Europe." MnemoMed
5. NamDU. Musiqa tarixi. www.namdu.uz